

08.00.01

08.00.02

08.00.03

08.00.04

08.00.05

08.00.06

08.00.07

08.00.08

08.00.09

08.00.10

08.00.11

08.00.12

08.00.13

08.00.14

08.00.15

08.00.16

08.00.17

ISSN 3030-3605

[HTTPS://JBMB.UZ](https://jbmb.uz)

ГУВОННОМА №224008

BANK BOZOR BIZNES

JURNAL

Bosh muharrir

Elektron nashr.

Pardayev Olim Mamayunusovich

Nashrga tayyorlovchi

Mas'ul kotib

Hamidov Mubin Habibjonovich

Bekmurodov Abbos Amiriddinovich

Tahririyat kengashi a'zolari:

Pulatov Muxiddin Egamberdiyevich	SamISI, rektori professori, i.f.d.
Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich	SamISI, professor, i.f.d.
Sharipov To'lqin Saidaxmedovich	SamISI, O'quv ishlari bo'yicha prorektori, dotsent, i.f.n.
Berdimurodov Azizjon Shukrilloevich	SamISI, Ma'naviy ishlar bo'yicha prorektori, i.f.f.d.
Zaynalov Jaxongir Rasulovich	SamISI, professor, i.f.d.
Urazov Komil Baxromovich	SamISI, professor, i.f.d.
Bektemirov Abdumalik	SamISI, professor, i.f.d.
Shavqiyev Erkin	SamISI, professor v.b. i.f.d.
Davronov Shuxrat Zuxurovich	i.f.d. dotsent.
Tashnazarov Samiddin Nizamovich	SamISI, professor, i.f.d.
Rustamov Maqsud Suvonqulovich	TDIU professori, i.f.d.
Mamatov Baxodir Safaraliyevich	TDIU professori, i.f.d.
Mattiyev Ilxom Begmatdo'lovovich	SamISI professor, p.f.d.
Niyozov Zuxur Davronovich	SamISI, dotsent. i.f.n.
Shadiyeva Gulnora Mardiyevna	SamISI "Real iqtisodiyot" kafedrası professori, i.f.d.
Xoliqulov Anvar Nematovich	SamISI professori, i.f.n.
Sayfiddinov Ilxom Fayziddinovich	TDIU dotsent, i.f.n.
Shukurov Izzatillo Xikmatillayevich	SamISI, dotsent. t.f.n.
Xolmamatov Diyor Haqberdiyevich	SamISI, dotsent, i.f.f.d.
Ibodov Kamoliddin Mamatqulovich	SamISI, dotsent, i.f.f.d.
Ernazarov Alisher Ergashevich	SamISI, dotsent v.b., p.f.f.d.
Sobirov Ilxom Xusanovich	SamISI, dotsent. i.f.n.
Abiyev Jahongir Ne'matovich	SamISI, dotsent. i.f.f.d.
Tagayev Salim Sobirovich	TDIU Samarqand filiali dotsent. i.f.f.d.
Axrorov Zarif Oripovich	TDIU Samarqand filiali dotsent. i.f.f.d.
Artikov Zokir Sayfiddinovich	SamISI, dotsent, i.f.f.d.
Abduxamidov Sarvar Adxamovich	SamISI, dotsent, i.f.f.d.
Shirinov Uchqun Abduxalilovich	SamISI, dotsent, i.f.f.d.
Normurodov Umid Normurod o'g'li	SamISI, dotsenti v.b., i.f.f.d.
Maxmudov Lazizbek Ubaydullo o'g'li	SamISI, dotsenti v.b., i.f.f.d.
Juliboy O'g'li Oybek	SamISI, i.f.f.d.
Pashaxodjayeva Dildora Djabborxonovna	SamISI, dotsent, i.f.f.d.
Malikova Dilrabo Muminovna	SamISI, i.f.f.d.
Ochilova Xilola Nematovna	SamISI i.f.f.d.
Ruziboyeva Nargiza Xakimovna	SamISI, dotsenti, i.f.f.d.
Kuldashev Sherzod Alimardonovich	SamISI, kata o'qituvchisi, i.f.f.d.
Karjavova Xurshida Abdumalikovna	SamDU, dotsenti, i.f.f.d.
Beknazarov Farxod Abduvaxidovich	SamISI, "Turizm" kafedrası o'qituvchisi, i.f.f.d.
Karimov Anvar Aktamovich	SamISI, "Turizm" kafedrası o'qituvchisi, i.f.f.d.

M U N D A R I J A

М.Қ.Пардаев, С.А.Бабаназарова, О.М.Пардаева	“Трансформация” ва “Меҳнат бозори трансформацияси” тушунчаларининг назарий масалалари ва йўналишлари	4-10
Ashurova Oltin Yuldashevna	Banklarning iqtisodiy ta’minoti: moliyaviy barqarorlik va uni baholash.	11-18
Babamuradova Taxmina Ixtiyorovna	Xizmat ko‘rsatish korxonalarida xodimlar faoliyatini rivojlantirishda innovatsiya va innovatsion menejmentning ahamiyati	19-24
Р.И.Рашидов С. Эшмуродова	Перспективы использования it-программ в современной банковской системе	25-28
С.У. Эшмуродова	Анализ влияния цифровизации и блокчейна на финансовую сферу	29-33
Bekmurodov A.A	Bank sohasida innovatsion moliyaviy texnologiyalarning joriy qilish yo‘llari	34-38

М.Қ.Пардаев -Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти профессори, и.ф.д.
С.А.Бабаназарова - Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти доценти, PhD.
О.М.Пардаева - ТДИУ Самарқанд филиалида
кафедра мудири, PhD.
Элек. почта: ozodapardaeva@yahoo.com

**“Трансформация” ва “Меҳнат бозори трансформацияси”
тушунчаларининг назарий масалалари ва йўналишлари**

Аннотция. Мақолада трансформациянинг асосий маънолари, меҳнат бозори трансформацияси (МБТ) тушунчасининг мазмуни, асосий жиҳатлари, глобаллашув жараёнидаги ўрни ва аҳамияти ёритилган, ҳамда меҳнат бозори трансформациясининг таърифи ишлаб чиқилган,

Калит сўзлар. Трансформация, саноат 4.0, автоматлаштириш, интеллектуал тизимлар, техник ва инновацион, иқтисодий, экологик, шахсий трансформация, меҳнат бозори трансформацияси, ижтимоий адолат.

**Теоретические вопросы и направления концепций «Трансформация» и
«Трансформация рынка труда».**

Аннотация. В статье выделены основные смыслы трансформации, содержание, основные аспекты понятия трансформации рынка труда (ТРТ), его роль и значение в процессе глобализации, а также разработано определение трансформации рынка труда.

Ключевые слова. Трансформация, индустрия 4.0, автоматизация, интеллектуальные системы, технические и инновационные, экономические, экологические, персональные трансформации, трансформация рынка труда, социальная справедливость.

**Theoretical issues and directions of the concepts of “Transformation”
and “Transformation of the labor market”.**

Abstract. The article highlights the main meanings of transformation, content, main aspects of the concept of labor market transformation (LMT), its role and significance in the process of globalization, and also develops a definition of labor market transformation.

Keywords. Transformation, industry 4.0, automation, intelligent systems, technical and innovative, economic, environmental, personal transformations, labor market transformation, social justice.

“Трансформация” инглиз тилидаги **“transformation”** сўзидан олинган бўлиб, ўзгариш, қайта шаклланиш, ривожланиш жараёнларини англатади. Ушбу термин кўпинча турли соҳаларда ва контекстларда қўлланилади, ва унинг маъноси ҳам мақсадга кўра доимий равишда ўзгариб туради. Трансформациянинг асосий маънолари қуйидагиларни қамраб олади:

Биринчидан, техник ва инновацион трансформация. Булар бевосита техниканинг такомиллашуви натижасида технологияларнинг ҳам такомиллашуви содир бўлиши тушунилади. Бевосита **технологик ўзгаришлар** ўз ичига янги технологиялар ва инновациялар орқали мавжуд тизимларнинг, маҳсулотларнинг ёки хизматларнинг тўлиқ қайта шаклланишини қамраб олади. Масалан, саноат 4.0 технологиялари орқали ишлаб чиқариш жараёнларининг автоматлаштирилиши.

Саноат 4.0 - бу саноат замонавий талабларга жавоб бериши асносида рақамлаштирилиши, автоматлаштириш, интеллектуал тизимларни ва интернетдаги барча қирраларни ўз ичига олган технологиялар тўпламини қамраб олади. Ушбу концепция, асосан, 2011 йилда Германияда рағбатлантирила бошланган бўлиб, саноатдаги инқилобни тушунтириш учун жорий этилган.

Саноат 4.0 технологиялари ишлаб чиқариш жараёнларини янада самарали йўналишларда тизимла равишда такомиллаштиришга хизмат қилади. Бу ресурслардан самарали фойдаланиш ва тезкор қарорлар қабул қилиб, унинг ижросини ҳам тезкорлик билан таъминлашни ўз ичига олади. Ушбу технологияларнинг татбиғи бир вақтнинг ўзида фермерликдан, логистикага, транспорт орқали манзилгача бўлган жараёнларни ва бошқа соҳаларни ҳам такомиллаштиришга хизмат қилади. Шунинг учун улар глобал иқтисодиётнинг ривожланишига катта таъсир кўрсатади. Кўриниб турибдики, Саноат 4.0 технологиялари бир қанча янги йўналишлар ва элементлардан таркиб топади.

Иккинчи йўналиш рақамлаштириш масаласини қамраб олади. Бунга хизматлар ва бизнес жараёнларини рақамли форматда қайта ташкил қилиш масалаларини киритиш мумкин. Бунга мисол қилиб, электрон савдо ёки шу билан боғлиқ онлайн хизматларни келтириш мумкин.

Учинчи йўналиш ижтимоий трансформацияни ҳам қамраб олади. Бунга бир қанча ижтимоий ўзгаришларни киритиш мумкин. Жумладан, меҳнат бозорида ижтимоий таркиблар (структуралар) ва муносабатларнинг

Ўзгариши кабиларни мисол қилиб олиш мумкин. Булар таркибига ижтимоий тенглик, ижтимоий адолат ва ижтимоий ҳаракатларни киритиш мумкин. Ижтимоий тенглик — бу жамиятдаги барча одамлар орасидаги мулоқот, имкониятлар ва ресурслардан фойдаланишдаги тенгликни кўриниши сифатида намоён бўлади. У ижтимоий, иқтисодий, сиёсий ва маданий соҳаларда ҳам изоҳланиши мумкин. Ижтимоий тенглик фуқароларнинг ҳақ-хуқуқлари, илм-асослар, хизматларнинг бир хил даражада тақсимланиши ва уларнинг ҳаёт стандартлари орасидаги фарқларни камайтиришга қаратилган.

Ушбу принцип жамиятнинг барқарорлиги ва ривожланиши учун асосий омил ҳисобланади. Чунки ижтимоий тенглик жамиятдаги чекловларни камайтириш, ижтимоий адолатни таъминлаш ва ҳар бир инсоннинг салоҳиятини рўёбга чиқариш имконини беради. Ижтимоий трансформациянинг бир йўналиши **маънавий ва маданий ўзгаришларни** ҳам қамраб олади. Бу жуда кўп маданий ва маърифий нормаларда, инсонларнинг ҳаёт тарзидаги ўзгаришларда намоён бўлади. Бир пайтлар диний ва миллий қадриятлардан бутунлай узоқлаштирилган эдик, эндиликда буларнинг ҳаммасига эркин амал қилиш имкониятлари яратилди.

Тўртинчи йўналиш иқтисодий трансформация бўлиб, бу ўз ичига иқтисодий ривожланиш ва саноатни қайта ташкиллаштириш борасидаги ўзгаришларни қамраб олади. **Иқтисодий ривожланиш** бевосита иқтисодий стратегиялар ва моделлар бўйича тўлиқ қайта шаклланишни англатади. Масалан, мамлакатларнинг иқтисодий сиёсатларини модернизация қилиш ёки иқтисодиётни эркинлаштириш, яъни давлат мулкидан хусусий мулкка ўтказиш кабиларни мисол келтириш мумкин. Ушбу йўналишда **саноатни қайта ташкиллаштириш борасидаги ўзгаришлар** ҳам муҳим аҳамиятга эга. Бунга саноат соҳасидаги таркибий ўзгаришлари ва инновацион усулларни жорий этишни, яъни илк бор механизациялашган саноат, кейинги босқичда автоматлаштирилган саноат, ҳозирда роботлашган саноат, келажакда (бунинг айрим жиҳатлари пайдо бўлган) сунъий интеллектлашган саноатни мисол тариқасида келтириш мумкин.

Бешинчи йўналишга корхона ва ташкилотлар трансформациясини ҳам келтириш мумкин. Бунга яқка тадбиркорлар, оилавий тадбиркорлик, фермер хўжаликлари, кластерларнинг пайдо бўлиши, корпоратив ўзгаришлар, йирик компанияларнинг вужудга келишини мисол келтириш мумкин. Булар таркибидан **корпоратив ўзгаришларни** оладиган бўлсак, бу бевосита ташкилотларнинг ички жараёнларини, таркибини ва стратегик йўналишларини қайта шакллантиришни англатади. Масалан, фаолият самарадорлигини ошириш учун қайта ташкил этиш ёки реинженерия жараёнларини мисол келтириш мумкин.

Олтинчи йўналиш сифатида шахсий трансформацияни олиш мумкин. Бу бевосита ҳар бир шахсининг масъулияти билан боғлиқ. Масъулият ўзининг олдида, оиласи, меҳнат жамоаси, миллати ва ватани олдидаги бурчларида намоён бўлади. Бунинг негизида **шахсининг ўзгариши** туради. Инсоннинг шахсий ҳаётидаги ўзгаришларга, мисол қилиб, шахсий ривожланиш, таълим олиш ёки янги кўникмаларни ўрганиш кабиларни келтириш мумкин. Масалан, инсоннинг ўз олдидаги бурча – инсониятга фойдаси тегадиган бирорта касбни эгаллаш ва у билан мунтазам шуғулланиб бориш ва билимини, тажрибасини такомиллаштириш, яратувчанлик салоҳиятини қўлга киритиш кабиларни келтириш мумкин. Шу йўл билан ўзи ҳам такомиллашада, оиласи ҳам фаровон бўлади, мамлакати рақобатбардош, юқори технологияларга асосланган иқтисодиётга ҳам эга бўлади.

Еттинчи йўналиш бевосита экологик трансформация билан ҳам боғлиқдир. Одатда **экологик ўзгаришлар** каттиқ атроф-муҳит муҳофазаси ва экологик барқарорликни таъминлашга қаратилган ўзгаришларни қамраб олади. Бунга мисол тариқасида янги экологик технологияларни жорий этишни келтириш мумкин. Шунинг илоҳиятига олиш жоизки, кўпинча трансформация ўзгариш жараёнида радикал (тубдан ўзгариш) ва тизимли ўзгаришларнинг (оддийликдан мураккаблик сари) амалга оширилиши билан боғлиқ бўлади, ва бу жараёнлар янги имкониятлар яратиш ёки муаммоларни ҳал қилишга ёрдам беради.

Энди бевосита **меҳнат бозори трансформацияси (МБТ)** тушунчасининг мазмунига тўхталамиз. Меҳнат бозори трансформациясини фан сифатида ўрганиш учун биринчи галда унинг ўзининг мазмунини аниқлаб олишни тақозо қилади. Тадқиқотларимиз натижасида, **Меҳнат бозори трансформацияси деганда, меҳнат бозорининг таркиби, функциялари ва механизмларидаги ўзгаришлар ва ривожланиш жараёнлари тушунилади**, деган таъриф ишлаб чиқилди. Бу трансформация бир неча омиллар таъсирида юзага келиши мумкин. Ушбу тушунча меҳнат бозоридаги айрим асосий тушунчаларни қамраб олади. Меҳнат бозори трансформациясининг асосий жиҳатлари қуйидагилардан иборат.

Биринчи галда технологик инновацияларни келтириш мумкин. Ушбу жараён ўз ичига автоматлаштириш ва роботлаштириш каби ўзгаришларни қамраб олади. Янгиликлар ва технологияларнинг ривожланиши меҳнат вазиятларини ўзгартириши мумкин, айниқса, бунга ҳунар ва иш амалиётларини автоматлаштириш орқали эришилишини мумкинлигини қайд этиш кифоя, деб ўйлаймиз.

Бу жараёнларнинг ёрқин намунаси **онлайн (масофадан) ишлашдан** иборатдир. Бугунги кунда интернет ва рақамли технологиялар орқали уйдан ишлаш, фриланс ва дистанцион ишлашнинг ўсиши содир бўлмоқда. Бунга Президентимизнинг маълум йўналиш бўйича ўтказилган селекторини оддий мисол қилиб олиш мумкин. Олдин бундай мажлисга барча вилояилардан ўнлаб мутасадди раҳбарлар бориб, мажлисда иштирок этиб қайтар эди. Булар юзлаб километр масофани босиб ўтиши билан бирга, қанча вақт ва энергия сарфлар эди. Энди ҳамма мутасаддилар ўзларининг жойларида туриб, қатнашмоқда, зарур ҳолларда шу масофадан ўз фикрларини ҳам билдирмоқда.

Иккинчи йўналиш иқтисодий ўзгаришлардан иборат. Бу ўз ичига халқаро меҳнат бозори, иқтисодий конъюнктура, мамлакатлар ва ҳудудларнинг иқтисодий ривожланишидаги рақобатчилик кабиларни ҳам қамраб олади. Иқтисодий ўзгаришлар **халқаро меҳнат бозори** билан ҳам боғлиқ. Бунга меҳнат миграцияси ва халқаро компаниялар фаолиятининг кўпайиши, глобаллашувнинг таъсири катта. Глобаллашув ўз ўрнига давлатлар ўртасидаги иқтисодий рақобатларни кучайтиради. Рақобатнинг кучайиши натижасида айрим корхоналарнинг ривожланиши ва айримларининг банкрот ҳолига тушиб қолиши табиий ҳолд. Бу олдин корхоналар ўртасида сўнгра ҳудудлар ўртасида ва ниҳоят давлатлар ўртасида рўй беради.

Глобал рақобат глобал **иқтисодий конъюнктурага** олиб келади. Бу ўз навбатида турли иқтисодий даврларда кризисларни, меҳнат бозоридаги иш жойларининг қисқариши (айримларида кўпайиши) ва маошларнинг ҳам ўзгаришига таъсир қилади.

Иқтисодий ўзгаришлар бевосита **тартибга солувчи ҳукукий ўзгаришлар** билан ҳам боғлиқ. Бунга эришиш учун **қонунчиликдаги ўзгаришларни** амалга оширишга тўғри келади. Бунда асосий эътибор меҳнат қонунчилиги, меҳнат шартномалари ва ишлаш шароитларини яхшилашга қаратилган сиёсатларнинг ўзгаришига қаратиш ҳам лозим бўлади. Бундай ўзгарувчи шароитга мос **ижтимоий ҳимоя** тизимини ҳам мунтазам равишда такомиллаштириб боришни тақозо қилади. Бунда меҳнаткашларнинг ижтимоий ҳимояни тизимларини такомиллаштириш ва таъминотини ривожлантиришни ҳам йўлга қўйишни тақозо қилади.

Учинчи йўналиш, меҳнат кўникмалари ва меҳнат салоҳиятларидан самарали фойдаланиш лозимлигидир. Бунда энг аввало, **касбий ривожланишга** аҳамият берилиши лозим. Меҳнаткашларнинг кўникма ва малакаларини ривожлантириш ва ўзгаришларга мослаштириш ҳам ҳар бир замоннинг ўзига хос талабларидан биридир. Чунки айрим касблар йўқолиб

кетиши билан бирга айримлари янгидан пайдо бўлади. Янги замонга мослашиш учун кадрлар ўқитилиб сертификатларга ва дипломларга эга бўлади. Шу тариқа уларнинг малака категорияси ва тажрибаларини оширишга эришилади. Бунда яна бир аҳамиятли масала **янги иш услубларининг** жорий қилиниши бўлиб ҳисобланади. Шу туфайли замонавий кадрлар касбий соҳаларда янги талаблар ва муваффақиятга эришиш учун зарур бўлган кўникмаларни доимий равишда қўлга киритиб боришлари лозим бўлади.

Тўртинчи йўналиш ижтимоий ва демографик ўзгаришлардан иборат. Бу йўналиш ўз навбатида **аҳолининг ёшини** ҳам инобатга олинишини тақозо қилади. Аҳоли ёши ўзгариши меҳнат бозорининг талаб ва таклифларига таъсир қилади. Тажрибали ходимларнинг нафақага чиқиши ва ҳали тажрибаси тўлиқ шаклланмаган ёшларнинг ишга жойлашиши ушбу ўзгаришлардаги броз мураккабликларни келтириб чиқаради. Шу туфайли ишга жойлаштиришда ҳам, иш жараёнида ҳам **ижтимоий адолат** тамойилига катта эътибор бериш мақсадга мувофиқ. Адолат бор жойда иш билан таъминлашга ва ишлашга бўлган қизиқиш катта бўлади. Бундай мулоҳазалар ижтимоий ва демографик ўзгаришларга олиб келувчи омилларга ҳам эътиборни қаратишни тақозо қилади.

Бешинчи йўналиш ходимнинг ишлаш маданияти билан боғлиқ. Чунки, ҳар бир соҳадаги ўзгаришлар бевосита иш жойидаги маданият, ишлаш услублари ва жамоавий ишлашнинг ўзгаришлари билан боғлиқдир. Бунда ҳар бир ходимнинг ишлаш **шароитларини** Халқаро ва маҳаллий ишлаш шартлари ва муҳити.

Олтинчи йўналиш бевосита меҳнат жамоалари ва иш берувчиларнинг роллари билан боғлиқдир. Шу тариқа меҳнат жамоалари шаклланади. Ушбу жараёнда меҳнат жамоалари ва касаба уюшмаларининг ривожланиши ва таъсири сезиларли бўлиши мақсадга мувофиқ. Чунки кўпинча иш **берувчиларнинг талаблари** инобатга олинади. Бу иш берувчиларнинг янги талаблари ва иш жойларини ташкил қилиш усуллари ҳам янгилаб боришга асос бўлади. Аммо ҳозирги шароитда ходимларнинг талаблари ва уларнинг эҳтиёжлари ҳам инобатга олинишини таъминлашни тақозо қилади..

Хулоса ва таклифлар. Тадқиқот натижасида бир қанча илмий тавсиялар ҳам шакллантирилди. Булар:

1. Саноат 4.0 технологиялари маҳсулотларга, машиналарга ва бошқа қурилмаларга интернетга уланиш имконини берганлиги туфайли буларни етиштирувчиларга реал вақтида маълумотларни йиғиш ва уларни таҳлил қилиш имконини яратиди.

2. Масофавий назорат қилишни йўлга қўйиш орқали маҳсулотларнинг ва ускуналарнинг ҳолатини назорат қилиш ва уларни самарали равишда таъмирлаш имконини берадиган механизмларни яратиш тавсия қилинмоқда.

3. Ҳозирги замонавий талаблардан келиб чиқиб, алоҳида маҳсулотлар ва хизматларни истеъмолчиларнинг индивидуал талабларига мослаштириш лозимлиги тавсия қилинмоқда. Бу ўз навбатида ҳар қандай корхона фаолияти самарадорлигини оширишга имконият яратиб беради.

4. Машина таълимотлари: Соҳада автоматлаштирилган ҳолатдада тадқиқотларни масофадан туриб амалга ошириш ва ўз фаолиятини яхшилаш учун маълумотларни таҳлил қилиш йўллари такомиллаштириш билан боғлиқ тавсия асосланди.

5. Ишлаб чиқариладиган маҳсулотнинг ёки жараёнларнинг рақамли моделини яратиш тавсия қилинди. Чунки ушбу тавсия реал вақтда натижаларни тезкор ва сифатли тарзда таҳлил қилишга ёрдам беради.

Хулоса қилиб айтганда, меҳнат бозори трансформацияси иқтисодий ривожланиш, технологиялар, ижтимоий ўзгаришлар ва конунчиликдаги ўзгаришлардан келиб чиқади ва бу жараёнлар ходимларнинг иш топиш, ишлаш шартлари ва умумий меҳнат бозорига таъсир кўрсатади. Бу трансформациялар меҳнат бозорининг самарадорлиги ва мувозанатини таъминлаш, шунингдек, ходимларнинг ҳаёт сифати ва профессионал ривожланишини яхшилаш учун ҳам муҳимдир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Қудратов, Ғ.Ҳ., Пардаев, М.Қ. Абдукаримов, Б.А., Сервис ривож – аҳолининг бандлигини таъминлаш ва фаровонлигини ошириш омили. Рисола. Т.: «Fan va texnologiya», 2007.
2. Пардаев, М.Қ., Мамасоатов, Т.Х. Пардаев, О.М., Модернизация, диверсификация ва инновация – иқтисодий ўсишнинг муҳим омиллари. Т.: Наврўз, 2014.
3. Пардаев М.Қ., Бабаназарова С.А. СОСТОЯНИЕ РАЗВИТИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ЕГО СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ НА МЕЖДУНАРОДНОМ УРОВНЕ // TJE-Tematics journal of Education ISSN. – 2021. – С. 2249-9822.
4. Кудбиев Ш.Д. «Рақамли иқтисодиёт ривожланишида меҳнат бозорини трансформациялашнинг методологик асосларини такомиллаштириш», 08.00.10 – Демография. Меҳнат иқтисодиёти (иқтисодиёт фанлари). фан доктори (ДСс) диссертацияси.

BANKLARNING IQTISODIY TA'MINOTI: MOLIYAVIY BARQARORLIK VA UNI BAHOLASH.

Ashurova Oltin Yuldashevna-Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
“Investitsiya va innovatsiyalar” kafedrası katta o'qituvchisi.

Annotatsiya. Banklarning iqtisodiy xavfsizligi har qanday iqtisodiyotning kengroq moliyaviy barqarorligida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ushbu maqolada banklarning moliyaviy barqarorligi ularning iqtisodiy xavfsizligining asosiy ko'rsatkichlari sifatida baholanadi. Turli xil xavf omillari, me'yoriy-huquqiy bazalar va moliyaviy ko'rsatkichlarni tahlil qilish orqali ushbu tadqiqot banklarning tobora o'zgaruvchan iqtisodiy muhitda xavfsizlikni qanday saqlab turishini o'rganadi. Tadqiqot banklarning moliyaviy xavfsizligiga ta'sir etuvchi omillarni baholaydi va moliyaviy barqarorlikni oshirish bo'yicha tavsiyalar berish uchun turli bank tizimlari bo'yicha qiyosiy baholashni taklif qiladi.

Kalit so'zlar: banklar, iqtisodiy xavfsizlik, inqiroz, barqarorlik, moliyaviy barqarorlik, pul-kredit siyosati, baholash.

Аннотация. Экономическая безопасность банков играет решающую роль в более широкой финансовой стабильности любой экономики. В данной статье финансовая устойчивость банков оценивается как основной показатель их экономической безопасности. Анализируя различные факторы риска, нормативно-правовую базу и финансовые показатели, это исследование изучает, как банки поддерживают безопасность в условиях все более нестабильной экономической среды. В исследовании дана оценка факторов, влияющих на финансовую безопасность банков, и предложена сравнительная оценка различных банковских систем для выработки рекомендаций по повышению финансовой устойчивости.

Ключевые слова: банки, экономическая безопасность, кризис, стабильность, финансовая устойчивость, денежно-кредитная политика, оценка.

Abstract. The economic safety of banks plays a crucial role in the wider financial stability of any economy. In this article, the financial stability of banks is evaluated as the main indicators of their economic security. By analyzing various risk factors, regulatory frameworks and financial performance, this study examines how banks maintain safety in an increasingly volatile economic

environment. The study assesses the factors affecting the financial safety of banks and offers a comparative assessment of different banking systems to make recommendations for improving financial stability.

Key words: banks, economic security, crisis, stability, financial stability, monetary policy, evaluation.

KIRISH

Iqtisodiy xavfsizlik banklar uchun muhim jihatdir, chunki ular iqtisodiy, siyosiy va moliyaviy risklarning murakkab tarmog'ida ishlaydi. Bankning barqarorligi nafaqat muassasaning o'zi, balki butun moliya tizimi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Global iqtisodiyotlarning o'zaro bog'liqligini hisobga olgan holda, bir sektor yoki muassasadagi inqiroz butun tizimga to'liq ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ushbu maqolaning maqsadi banklarning moliyaviy barqarorligi va barqarorligini ularning iqtisodiy xavfsizligining asosiy choralari sifatida baholashdir.

Muammo bayoni

Iqtisodiy noaniqlik, pul-kredit siyosatidagi o'zgarishlar va raqobatning kuchayishi banklarning iqtisodiy xavfsizligini moliyaviy muhokamada birinchi o'ringa qo'ydi. Ushbu maqola asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar va risklarni boshqarish strategiyalariga e'tibor qaratish orqali moliyaviy barqarorlik va barqarorlikni har tomonlama baholashga qaratilgan.

Maqsadlar:

- banklarning moliyaviy barqarorligini tekshirish.
- asosiy ko'rsatkichlar orqali banklarning moliyaviy barqarorligini baholash.
- iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda me'yoriy-huquqiy bazalarning rolini o'rganish.
- moliyaviy xavfsizlikni oshirish bo'yicha yechimlarni taklif qilish.

USULLARI

Ushbu maqola banklarning iqtisodiy xavfsizligini aniq va izchil tushunishni ta'minlash uchun ilmiy tuzilishga amal qiladi. Metodologiya sifat va miqdoriy tahlilni o'zida mujassamlashtirgan aralash usullarga asoslangan.

1 Ma'lumot to'plash

Ushbu tadqiqot uchun ma'lumotlar to'plangan:

- Jahon va mintaqaviy banklarning moliyaviy hisobotlari.

- Nazorat qiluvchi organlarning bank xavfsizligini baholashlari (masalan, Bazel qo'mitasi).

- Bank barqarorligi va barqarorligiga qaratilgan ilmiy adabiyotlar.

2. Asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar

Tadqiqotda banklarning iqtisodiy xavfsizligini baholash uchun quyidagi moliyaviy ko'rsatkichlar qo'llaniladi:

- Kapital yetarlilik koeffitsienti
- Ishlamaydigan kreditlar nisbati
- Aktivlar rentabelligi
- Likvidlikni qoplash koeffitsienti

3. Xatarlarni baholash modellari

Tadqiqot banklarning moliyaviy mustaqilligi va barqarorligini aniqlash uchun Z-skor modeli kabi risklarni baholash modellaridan foydalanadi. Ushbu model bankning rentabelligi, likvidligi va kapital mustahkamligini baholash orqali to'lovga layoqatsizlik ehtimolini baholaydi.

4. Qiyosiy tahlil

Tahlilning ishonchliligini oshirish uchun turli xil me'yoriy-huquqiy bazalar va operatsion modellarning samaradorligini baholash uchun turli mintaqalar, jumladan, Shimoliy Amerika, Yevropa va Osiyodagi banklar solishtirildi.

NATIJALAR

Ushbu tadqiqot natijalari turli manbalardan olingan ma'lumotlardan foydalangan holda va muhokama qilingan ko'rsatkichlarni qo'llash orqali banklarning moliyaviy barqarorligiga qaratilgan.

Moliyaviy barqarorlik

Kapitalning yetarlilik koeffitsienti tahlili shuni ko'rsatdiki, rivojlangan mamlakatlardagi banklarning ko'pchiligi kapital yetarlilik koeffitsientini talab qilinadigan normativ minimumdan yuqori darajada ushlab turishadi. Bu kuchli moliyaviy barqarorlikka umumiy tendentsiyani ko'rsatadi. Biroq, ba'zi banklar, xususan, rivojlanayotgan mintaqalarda, kapital cheklovlari va tavakkalchilik tufayli tegishli kapital yetarlilik koeffitsientini saqlab qolish uchun kurash olib bordi.

Moliyaviy barqarorlik

Z-skor modelidan foydalangan holda, tadqiqot shuni ko'rsatdiki, rivojlangan mintaqalardagi aksariyat banklar yuqori barqarorlikni namoyish

etgan bo'lsa-da, me'yoriy-huquqiy bazalari zaifroq mintaqalardagi banklar moliyaviy beqarorlik belgilarini ko'rsatdi. Xususan, ba'zi banklarda ishlamaydigan kreditlar nisbati ko'rsatkichlarining yuqoriligi ularning uzoq muddatli barqarorligi uchun xavf borligini ko'rsatdi.

Normativ-huquqiy bazalarning roli

Bazel III kabi me'yoriy-huquqiy bazalar banklarning moliyaviy barqarorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu qoidalarga rioya qilgan banklar qisqa muddatli majburiyatlarni qoplash uchun yetarli likvidlikka ega bo'lishini ta'minlab, ishlamaydigan kreditlar nisbatining pastroq ko'rsatkichlarini va yuqori likvidlikni qoplash ko'rsatkichlarini likvidlikni qoplash ko'effitsientini ko'rsatadi.

Mintaqaviy taqqoslash

Shimoliy Amerika va Yevropadagi banklar ba'zi Osiyo va Afrika mintaqalaridagi banklarga qaraganda moliyaviy barqarorlik va barqarorlikning yuqori darajasini ko'rsatib kelmoqda. Normativ muhit va kapital bozorlariga kirish ushbu farqlarning asosiy hal qiluvchi omillari ekanligi ma'lum.

MULOHAZA

Ushbu tadqiqot natijalari banklarning iqtisodiy xavfsizligi uchun moliyaviy barqarorlik va barqarorlikni saqlash muhimligini ta'kidlaydi. Ushbu tadqiqotda tahlil qilingan asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar shuni ko'rsatdiki, kapitalning etarliligi yuqori, likvidlikni yaxshiroq boshqarish va past ishlamaydigan kreditlar nisbati ko'rsatkichlariga ega bo'lgan banklar moliyaviy jihatdan xavfsizroqdir.

Moliyaviy barqarorlik va barqarorlikning o'zaro ta'siri

Moliyaviy barqarorlik va barqarorlik bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Kuchli kapital buferlariga kapital yetarlilik ko'effitsientiga ega bo'lgan bank iqtisodiy zarbalarga dosh berish ehtimoli ko'proq bo'lib, uning to'lovga layoqatsizligi ehtimolini kamaytiradi va Z-skorini yaxshilaydi. Boshqa tomondan, yuqori ishlamaydigan kreditlar nisbati ko'effitsientiga ega bo'lgan banklar moliyaviy barqarorlik bilan kurashadi, bu esa xavfning oshishiga olib keladi.

Risklarni boshqarish va tartibga solish ta'siri

Normativ-huquqiy muhit, xususan, risklarni boshqarish bo'yicha, banklarning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Masalan, Bazel III standartlariga muvofiqligi banklarning likvidligi va kapitalining yetarliligini oshiradi, bu esa ularning barqarorligini bevosita oshiradi.

Rivojlanayotgan mamlakatlardagi muammolar

Rivojlanayotgan mamlakatlardagi banklar kapitalga kirishning cheklanganligi va tartibga soluvchi nazoratning zaifligi kabi noyob muammolarga duch kelishmoqda. Ushbu banklar ko'pincha yuqori ishlamaydigan kreditlar nisbati ko'rsatkichlarini va past kapital yetarliligini namoyish etadilar, bu esa iqtisodiy tebranishlarga nisbatan ko'proq zaiflikka olib keladi.

Bank iqtisodiy xavfsizligida raqamli transformatsiyaning roli

So'nggi yillarda raqamli transformatsiya bank sektorida ham moliyaviy barqarorlikka, ham barqarorlikka hissa qo'shadigan muhim elementga aylandi. Sun'iy intellekt, blokcheyn va katta ma'lumotlar tahlili kabi raqamli texnologiyalarning qabul qilinishi banklarning risklarni boshqarish, mijozlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash va operatsion samaradorlikni oshirish qobiliyatini oshiradi. Shu bilan birga, u ehtiyotkorlik bilan boshqarilishi kerak bo'lgan kiberxavfsizlik tahdidlari kabi yangi xavflarni ham keltirib chiqaradi.

Operatsion samaradorlikka ta'siri

Raqamli transformatsiya banklarga operatsiyalarni soddalashtirish, xarajatlarni kamaytirish va qarorlar qabul qilish jarayonlarini yaxshilash imkonini beradi. Tranzaktsiyalarni qayta ishlash va mijozlarni qo'llab-quvvatlash kabi muntazam vazifalarni avtomatlashtirish xarajatlarni sezilarli darajada tejashga va moliyaviy barqarorlikka bevosita hissa qo'shadigan rentabellikni oshirishga olib keladi. Bundan tashqari, raqamli vositalar banklarga ma'lumotlarni yaxshiroq tushunish imkonini beradi, bu ularga risklarni boshqarish va kapitalni taqsimlash bo'yicha ongli qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Kiberxavfsizlik risklari va moliyaviy barqarorlik

Raqamli texnologiyalar ko'p foyda keltirsa-da, ular banklarni, xususan, kiberxavfsizlik sohasida yangi xavflarga duchor qiladi. Ma'lumotlarning buzilishi, xakerlik hodisalari va kiberhujumlar banklar uchun jiddiy moliyaviy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Raqamli infratuzilmalarga tobora ortib borayotgan ishonch banklarni bunday hujumlarga nisbatan zaifroq qiladi, bu esa

ularning moliyaviy barqarorligiga putur yetkazishi mumkin. Shu sababli, kuchli kiberxavfsizlik choralariga sarmoya kiritish banklarning uzoq muddatli iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun juda muhimdir.

Raqamli transformatsiyani tartibga soluvchi javoblar

Regulyatorlar raqamli transformatsiyadan kelib chiqadigan xavf va imkoniyatlarni ko'rib chiqishni boshladi. Misol uchun, Yevropa Ittifoqining umumiy ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risidagi reglamenti va Amerika Qo'shma Shtatlarining Kiberxavfsizlik bo'yicha ma'lumot almashish to'g'risidagi qonuni ma'lumotlar xavfsizligi va maxfiylik xavflarini boshqarish bo'yicha ko'rsatmalarni o'rnatdi. Bundan tashqari, markaziy banklar fintech innovatsiyalarining moliyaviy tizim barqarorligiga ta'sirini kuzatishda tobora ko'proq ishtirok etmoqda. Raqamli asrda iqtisodiy xavfsizlikni saqlab qolish uchun ushbu qoidalarga rioya qilishni ta'minlash juda muhimdir.

Banklarga tashqi iqtisodiy omillarning ta'siri

Banklarning moliyaviy xavfsizligini aniqlashda tashqi iqtisodiy omillar, jumladan, jahon iqtisodiy tendentsiyalari, foiz stavkalari, geosiyosiy risklar katta rol o'ynaydi. Ushbu omillarning o'zgarishi banklarning rentabelligi, likvidligi va kapitalining yetarliligiga bevosita ta'sir qilishi mumkin, shuning uchun ularning umumiy barqarorligiga ta'sir qiladi.

Foiz stavkasining o'zgarishi

Foiz stavkalari bank rentabelligi va barqarorligini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. So'nggi o'n yil ichida ko'plab rivojlangan iqtisodlarda ko'rinib turganidek, past foiz stavkalari banklarning sof foiz marjasini siqadi, bu esa rentabellikni pasaytirishi mumkin. Aksincha, tez sur'atlar bilan o'sib borayotgan foiz stavkalari qarz olish narxini oshirishi mumkin, bu esa qarz oluvchilar o'rtasida defolt stavkalarining oshishiga va ishlamaydigan kreditlarning o'sishiga olib keladi. Markaziy banklarning pul-kredit siyosati, jumladan, foiz stavkalarini o'zgartirish, banklarning iqtisodiy xavfsizligiga, xususan, likvidlikni boshqarish va tavakkalchilik nuqtai nazaridan chuqur ta'sir ko'rsatadi.

Global iqtisodiy tendentsiyalar va bank sektorining barqarorligi

Savdo kelishmovchiliklari yoki tovar narxlarining o'zgarishi kabi global iqtisodiy hodisalar bank sektoriga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Misol uchun, 2008 yilgi moliyaviy inqiroz global moliyaviy institutlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik keng tarqalgan beqarorlikka olib kelishi mumkinligini ko'rsatdi. O'zgaruvchan

bozorlar yoki valyutalarga qattiq ta'sir ko'rsatadigan banklar iqtisodiy tanazzul paytida jiddiy moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin.

Geosiyosiy xavflar

Geosiyosiy xatarlar, jumladan, siyosiy beqarorlik, savdo urushlari va sanksiyalar banklarning iqtisodiy xavfsizligiga, ayniqsa xalqaro ta'sirga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, siyosiy tartibsizliklar yoki mojarolar bo'lgan hududlarda faoliyat yuritayotgan banklar qarzlarni undirish, operatsiyalarni boshqarish yoki likvidlikni ta'minlashda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Bundan tashqari, mamlakatlar yoki muayyan sektorlarga nisbatan qo'llanilgan sanksiyalar bank operatsiyalarini to'xtatib qo'yishi, ularning transchegaraviy operatsiyalarni amalga oshirish yoki jahon moliyaviy bozorlariga kirish imkoniyatlarini cheklashi mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ushbu maqola moliyaviy barqarorlik va barqarorlik banklarning iqtisodiy xavfsizligining muhim tarkibiy qismi ekanligini ko'rsatdi. Kapital yetarlilik koeffitsienti, ishlaymagan kreditlar nisbati, aktivlar rentabelligi va likvidlik koeffitsientlari kabi asosiy moliyaviy ko'rsatkichlarni tahlil qilish orqali ushbu tadqiqot turli mintaqalardagi banklarning hozirgi holatiga baho beradi.

Asosiy topilmalar:

- Kapital yetarliligi va likvidlikni boshqarish amaliyotiga ega bo'lgan banklar iqtisodiy xavfsizlikning yuqori darajasini ko'rsatadi.
- Bazel III kabi me'yoriy-huquqiy bazalar banklarning moliyaviy barqarorligini sezilarli darajada yaxshilaydi.
- Iqtisodiy xavfsizlikda mintaqaviy nomutanosibliklar mavjud bo'lib, rivojlanayotgan mamlakatlardagi banklar ko'proq moliyaviy risklarga duch kelishmoqda.

Tavsiyalar:

1. Rivojlanayotgan mamlakatlarda kapitalning yetarliligi va likvidligini boshqarishni kuchaytirish.
2. Xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlash uchun tartibga soluvchi nazoratni kuchaytirish.
3. Mintaqaviy iqtisodiy sharoitlarga moslashtirilgan risklarni boshqarish strategiyalarini ishlab chiqish.

Banklarda iqtisodiy xavfsizlikni baholash doimiy muammo hisoblanadi, ammo to'g'ri risklarni boshqarish, tartibga solishni qo'llab-quvvatlash va kapitalni mustahkamlash bilan banklar uzoq muddatda ularning barqarorligini ta'minlashi mumkin.

Ushbu kengaytirilgan muhokama banklarning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash nafaqat kuchli moliyaviy asoslarni, balki tashqi muhitni, tartibga solish landshaftini va texnologik taraqqiyotni har tomonlama tushunishni ham talab qiladi, degan argumentni mustahkamlaydi. Raqamli transformatsiya va tashqi iqtisodiy omillarga sezgirlik jadal rivojlanayotgan jahon iqtisodiyotida banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Kiberxavfsizlikka sarmoya kiritish: Banklar paydo bo'layotgan raqamli tahdidlarga qarshi turish uchun mustahkam kiberxavfsizlik asoslarini ishlab chiqish uchun katta resurslarni ajratishi kerak.

Tashqi iqtisodiy ko'rsatkichlar monitoringi: Banklar o'z strategiyalarini mos ravishda o'zgartirish uchun tashqi iqtisodiy va geosiyosiy risklar monitoringini kuchaytirishlari kerak.

Ushbu muammolar va imkoniyatlarga moslashgan banklar o'zlarining uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta'minlash va shu orqali o'zlarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun yaxshiroq joylashadilar.

ADABIYOTLAR:

1. Bank nazorati bo'yicha Bazeli qo'mitasi (2011). Bazeli III: Ko'proq barqaror banklar va bank tizimlari uchun global me'yoriy baza.
2. Maxmudova, G., Gulomova, N. va Mirzaev, D. (2022). Kriptovalyuta va blokcheyn texnologiyalarining huquqiy jihatlari: O'zbekiston va xorijiy tajriba.
3. Xalqaro valyuta jamg'armasi (2018). Global moliyaviy barqarorlik hisoboti: Global moliyaviy inqirozdan keyin o'n yil.
4. Valyuta nazorati boshqarmasi (2021). Kiberxavfsizlik tahdidlari va banklarga tayyorgarlik.
5. Nurillayev, J. Y. (2022). Tijorat banklarida moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashda korporativ boshqaruv tizimining roli.
6. Jahon banki (2022). Bank sohasida raqamli transformatsiya: moliyaviy barqarorlik va xavfsizlik uchun katalizator.

XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA XODIMLAR FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYA VA INNOVATION MENEJMENTNING AHAMIYATI

Babamuradova Taxmina Ixtiyorovna

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti "Iqtisodiyot va biznes"
kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada xizmat ko'rsatish korxonalarida xodimlar faoliyatini rivojlantirishda innovatsiya va innovation menejmentning ahamiyati tadqiq qilingan. Shuningdek, innovatsiya va innovation faoliyat hamda innovation kadrlar menejmentining asosiy vazifalari atroflicha o'rganilgan.

Kalit so'zlari. innovatsiya, innovation faoliyat, inson resurslari, innovation kadrlar menejmenti, mehmonxona boshqaruvi, strategik maqsadlar, resurslar, kadrlarga oid yangiliklar.

Аннотация: В данной статье рассматривается значение инноваций и инновационного менеджмента в развитии сотрудников предприятий сферы услуг. Также подробно изучены основные задачи инновационной деятельности и инновационного управления персоналом.

Ключевые слова: инновации, инновационная деятельность, человеческие ресурсы, инновационный менеджмент персонала, гостиничный менеджмент, стратегические цели, ресурсы, кадровые новости.

Annotation: This article examines the importance of innovation and innovation management in the development of employees of service enterprises. The main tasks of innovation activities and innovative personnel management are also studied in detail.

Keywords: innovation, innovative activity, human resources, innovative personnel management, hotel management, strategic goals, resources, personnel news.

Kirish

Innovatsiya va innovation faoliyat an'anaviy tarzda ilmiy texnik taraqqiyot (uning yuqori texnologik qismi) yo'nalishi va ilmiy tadqiqotlar hamda ishlanmalar natijalarining amaliyotga joriy etilishi bilan bog'g'liq jarayon sifatida tushuniladi. Biroq, "innovatsiya" tushunchasining ma'no va mazmuni ancha keng. Innovatsiyalar sohasi keng ko'lamli bo'lib, u nafaqat ilmiy-texnik ishlanmalar va ixtirolardan amaliy foydalanishni qamrab oladi, balki mahsulot, jarayonlar,

marketing (savdo), mehmonxonachilikdagi o'zgarishlarni ham o'z ichiga oladi. Innovatsiya o'zgarishning yaqqol omili, yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot, texnologik jarayonlar, ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishning yangi xizmatlari va yangi yondashuvlari sifatida keladi. Zamonaviy talqinda "innovatsiya" atamasini Y.Shumpeter birinchi bo'lib qo'llab, innovatsiya - bu yangi materiallar va komponentlardan foydalanish, yangi jarayonlarning joriy etilishi, yangi bozorlarning ochilishi, yangi tashkiliy shakllarning kiritilishiga asoslangan barcha yangi uslublarning yangicha qo'shiluvi va tijoratlashuvidan iborat hosila funksiyalarining jiddiy o'zgarishidir, deb ta'kidlaydi.

Asosiy qism

Innovatsiya – bu bozordagi yangi mahsulot, yangi hodisa yoki hatti-harakat bo'lib, u iste'molchini jalb qiladi. Uning ehtiyojlarini qondirish va shu bilan bir vaqtda tadbirkorga daromad keltirish maqsadiga ega ekanligini bunga qo'shimcha qilish mumkin. Innovatsion rivojlanishni belgilovchi omillar quyidagilar hisoblanadi:

- ✓ bozorga oid kon'yunktura va raqobat (ham ichki, ham tashqi bozorlarda);
- ✓ muhit (fan va texnika rivojining rivojlanish darajasi, qonuniy va me'yoriy asos, siyosiy va iqtisodiy barqarorlik);
- ✓ kadrlar (olimlar, mutaxassislar, tadbirkorlar, menejerlar, siyosiy arboblari, davlat xizmatchilari);
- ✓ resurslar (tabiiy, ishlab chiqaruvchi, moliyaviy, ilmiy-texnik, texnologik, infraqurilma).

Inson faoliyatining turli sohalarida yuz berayotgan doimiy o'zgarishlar innovatsiyalarga turtki beradi. Ulardan har birida yangiliklarning maqsadlari barqaror va uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan yangi jarayonlar yoki mahsulotlarni joriy qilishdir.

